

BIR KAMAR, BIR YO'L: MINTAQAVIY HAMKORLIKNING YANGI BOSQICHI

Matqurbonova Aziza Davronbek qizi

JIDU, XIM fakulteti, Tashqi
iqtisodiy faoliyat yo'nalishi magistranti

Tel: +99893 702 48 21

Email: azizamatqurbanova291@gmail.com

Ishmuradov Bahodir Sunnatovich

JIDU, Xalqaro moliya va investitsiyalar
kafedrası o'qituvchisi

Email: ishmuradov@uwed.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada “Bir kamar-bir yo'l” tashabbusining mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishdagi o'rni va ta'siri tahlil qilinadi. Bugun dunyo savdosi, logistika zanjirlari va energetik bog'liqlik tobora murakkablashayotgan bir paytda bir kamar-bir yo'l loyihasi ko'plab davlatlar uchun transport infratuzilmasini yaxshilash, savdo oqimlarini kengaytirish hamda samarali iqtisodiy sheriklik o'rnatish imkonini berayotgani bilan ajralib turadi. Maqolada tashabbusning asosiy yo'nalishlari - quruqlik yo'llari, dengiz yo'laklari, energetik tarmoqlar va raqamli infratuzilma bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarga e'tibor qaratiladi. Shu bilan birga, Bir kamar bir yo'l mintaqalar o'rtasidagi savdo xarajatlarini kamaytirishi, transport vaqtini qisqartirishi, investitsiya oqimini faollashtirishi kabi amaliy natijalar misollar orqali yoritiladi. Tadqiqot davomida loyihaning nafaqat iqtisodiy, balki madaniy aloqalarni kuchaytirish, xalqaro ishonchni mustahkamlash kabi yumshoq integratsion jihatlari ham tahlil qilinadi.

Annotation: This article analyzes the role and impact of the “Belt and Road Initiative” in deepening regional cooperation. At a time when global trade, logistics chains, and energy interdependence are becoming increasingly complex, the Belt and Road project stands out for its ability to help many countries improve transport infrastructure, expand trade flows, and establish effective economic partnerships. The article focuses on the main components of the initiative - land routes, maritime corridors, energy networks, and digital infrastructure. In addition, the study highlights practical outcomes such as reducing trade costs between regions, shortening transportation time, and stimulating investment flows. The research also examines the initiative's soft integration aspects, including its contribution to strengthening cultural ties and building international trust.

Аннотация: В данной статье анализируется роль и влияние инициативы «Один пояс - один путь» в углублении регионального сотрудничества. В

условиях, когда мировая торговля, логистические цепочки и энергетическая взаимосвязь становятся всё более сложными, проект «Один пояс - один путь» выделяется тем, что предоставляет многим государствам возможности для улучшения транспортной инфраструктуры, расширения торговых потоков и установления эффективного экономического партнёрства. В статье рассматриваются основные направления инициативы - сухопутные маршруты, морские коридоры, энергетические сети и цифровая инфраструктура. Кроме того, приводятся практические результаты, такие как снижение торговых издержек между регионами, сокращение времени перевозок и активизация инвестиционных потоков. В ходе исследования анализируются также «мягкие» аспекты интеграции - укрепление культурных связей и повышение международного доверия.

Kalit so'zlar: Global integratsiya, dengiz ipak yo'li, logistika markazlari, savdo yo'laklari, logistika bazalari, geoiqtisodiy muvozanat, transport tranziti, global savdo yo'llari, mintaqaviy iqtisodiy sheriklik

So'nggi o'n yilliklarda dunyo iqtisodiyoti tub o'zgarishlarni boshdan kechiryapdi. Global integratsiya, transport tarmoqlarining rivojlanishi va yangi savdo yo'llarining shakllanishi mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamladi. Shu jarayonda Xitoy Xalq Respublikasi tashabbusi bilan ilgari surilgan "Bir kamar – bir yo'l" loyihasi jahon iqtisodiyotining eng yirik strategik dasturlaridan biriga aylandi. Ushbu tashabbus 2013-yilda e'lon qilingan bo'lib, uning asosiy maqsadi Osiyo, Yevropa va Afrikani yagona savdo va investitsiya tarmog'iga birlashtirishdan iboratdir. "Bir kamar – bir yo'l" loyihasi nafaqat iqtisodiy, balki geosiyosiy jihatdan ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki bu tashabbus orqali Xitoy o'zining global ta'sir doirasini kengaytirish, xalqaro savdoda markaziy o'rin egallash hamda transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilishni ko'zlagan. BRI doirasida Xitoy 150 dan ortiq davlatlar bilan hamkorlik o'rnatib, infratuzilma, energetika, transport, aloqa va sanoat sohalariga milliardlab dollar miqdorida investitsiyalar kiritmoqda. Yevropa esa ushbu tashabbusda alohida o'rin tutadi. Bir tomondan, Yevropa Ittifoqi dunyodagi eng yirik iqtisodiy bloklardan biri bo'lib, texnologik va sanoat salohiyati bilan ajralib turadi. Boshqa tomondan, Xitoy uchun Yevropa bozorlari - yuqori sifatli ishlab chiqarish, barqaror iste'mol bozori va siyosiy ishonchlilik manbaidir. Shu sababli, "Bir kamar – bir yo'l" loyihasi doirasida Yevropaga yo'naltirilgan Xitoy investitsiyalari nafaqat iqtisodiy, balki strategik ahamiyatga ham ega bo'ldi.

Si Szinpin 2013-yil 7-sentabr kuni Qozog'istonning Nazarboyev universitetida so'zlagan nutqida ilk bor qadimgi Ipak yo'li mamlakatlari o'rtasida "Ipak yo'li iqtisodiy kamari" yaratilgani haqida gapirib o'tgan. O'sha yilning 3

oktyabrida Si Szinpin Indoneziya parlamentidagi nutqida ASEAN davlatlari bilan hamkorlikni mustahkamlash va qo'llab-quvvatlashni maqsad qilganini aytadi. 21-asr dengiz ipak yo'lini birgalikda qurishga tayyor ekanliklarini ma'lum qilib o'tdi. 2017 yilning avgust oyida loyiha doirasida hamkorlikni imzolagan davlatlar va xalqaro tashkilotlar soni 69 taga yetdi. Har yili ularning soni ortib borishi kutilyapdi. Loyiha transport tarmoqlari, energiya tarmoqlari va telekommunikatsiyalar orqali xalqaro integratsiyaga qaratilgan. U dunyo yalpi ichki mahsulotining 42 foizini, dunyo aholisining 64 foizini, quruqlikning 40 foizini, ma'lum energiyaning 75 foizini qamrab oladi. Xitoy loyihani 30-35 yil ichida yakunlab, 100 yillik yubileyiga 2049 yilda erishmoqchi. Tarixiy Ipak yo'liga murojaat qilish orqali Xitoy jahon jamiyatlari xotirasida ijobiy imidjga sarmoya kiritadi. Maqsadli aloqa va transport loyihalari "ipak yo'li": "temir ipak yo'li", "quruqlik ipak yo'li", "dengiz ipak yo'li", "havo ipak yo'li" va "raqamli ipak yo'li" deb nomlanadi. Shunday qilib, Xitoy jahon hamjamiyati loyihani osonlik bilan tushunishi va ishonchni mustahkamlashga harakat qilmoqda. Iqtisodiy jarayonlarni chuqur tushunish uchun avvalo ularning nazariy poydevorini ko'rib chiqish zarur. Xitoy investitsiyalarining Yevropa iqtisodiyotidagi o'rni va ta'sirini tahlil qilishda, xalqaro investitsiyalar nazariyasi, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy sarmoyalar konsepsiyasi va iqtisodiy integratsiya modellari muhim ahamiyat kasb etadi. Bir kamar – bir yo'l" tashabbusining investitsion mexanizmi: bu faqat savdo yo'li emas, balki keng ko'lamli iqtisodiy hamkorlik tarmog'idir. U ikki asosiy yo'nalishni o'z ichiga oladi:

- **"Ipak yo'lining iqtisodiy kamari"** – quruqlikdagi infratuzilma, transport va sanoat zonalarini rivojlantirishni maqsad qiladi.

- **"XXI asr dengiz ipak yo'li"** – dengiz portlari, logistika markazlari va savdo yo'laklarini rivojlantirishni o'z ichiga oladi.

Xitoy ushbu tashabbus doirasida ko'p tarmoqli moliyaviy tizimni yaratgan:

- Asia Infrastructure Investment Bank - infratuzilma loyihalarini moliyalashtiruvchi xalqaro bank.

- Silk Road Fund-BRI doirasidagi sarmoyalarni to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlovchi fond.

- China Development Bank va Export-Import Bank of China – investitsion kreditlar va grantlar orqali loyihalarga mablag' ajratadi.

Yevropada bu mexanizmlar orqali ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda. Masalan, Gretsiyaning Pirey portini modernizatsiya qilish loyihasi COSCO kompaniyasi orqali Xitoy tomonidan moliyalashtirilgan. Bu loyiha Yevropaning janubiy qismidagi eng muhim logistika markaziga aylanishiga sabab bo'ldi. Xalqaro iqtisodiyotda investitsiyalar nafaqat kapital oqimini ta'minlaydi, balki mamlakatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtiruvchi vosita sifatida ham xizmat qiladi. Xitoy sarmoyalari Yevropaga kirib borishi orqali:

- yangi texnologiyalar kiritiladi;
- yangi ish o'rinlari yaratiladi;
- savdo oqimlari kengayadi;
- energetika, transport va ishlab chiqarish tarmoqlarida raqobat oshadi.

Bunday integratsiya o'z navbatida Yevropa iqtisodiyotining ayrim qismlarini jonlantiradi, lekin shu bilan birga, ayrim siyosiy xavotirlarni ham keltirib chiqaradi. Masalan, ayrim Yevropa davlatlari Xitoy kapitalining haddan tashqari ko'pligini "strategik mustaqillikka tahdid" sifatida baholamoqda.

"One belt one road mazmunida: A'zo davlatlar tarkibiga temir yer va raqamli aloqalar, ko'priklar, neft va gaz quvurlari, logistika bazalari, elektr stantsiyalari, aeroportlar va portlar kabi yirik ob'ektlar kiritiladi. Loyiha ikki qismdan iborat: Ipak yo'li iqtisodiy kamari va dengiz ipak yo'li.


1-jadval, Bir kamar bir yo'l loyihasining quruqlik qismidagi 6 ta yo'lagi

	Davlat	Asosiy yo'l
1	Xitoy	Indochina yarimoroli iqtisodiy koridori
2	Xitoy	Pokiston iqtisodiy koridori
3	Xitoy-Markaziy Osiyo	Markaziy Osiyo- G'arbiy Osiyo iqtisodiy koridori
4	Bangladesh-Xitoy-Hindiston	Myanma iqtisodiy koridori
5	Xitoy-Mo'g'uliston	Rossiya iqtisodiy koridori
6	Yangi Yevrosiyo	Quruqlik ko'prigi iqtisodiy koridori

Tashabbusning quruqlikdagi qismini tashkil etuvchi, zamonaviy ipak yo'li deb ham ataladigan Ipak yo'li iqtisodiy kamari bilan Xitoy, Qozog'iston va Mo'g'ulistondan Rossiya va Eron orqali Yevropaga yetib borish uchun temir yo'l aloqalari o'rnatilishi ko'zda tutilgan. mintaqa davlatlari bilan savdo aylanmasini oshirish va qulaylashtirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshiriladi. Shu tarzda, Xitoyning rivojlanmagan ichki hududlarini rivojlantirishga hissa qo'shishi kutilmoqda"¹. Xitoy kompaniyalari tomonidan Yevropada amalga oshirilayotgan sarmoyalar, masalan, Gretsiyadagi Pirey porti, Vengriyadagi Budapesht–Belgrad temir yo'li, Italiyadagi energetika loyihalari yoki Germaniyada texnologik hamkorliklar,

¹ <https://lex.uz/mact/-4381463>

Yevropa iqtisodiyotining ayrim tarmoqlarini jonlantirishga yordam bermoqda. Shu bilan birga, bu jarayon ayrim xavotirlarni ham keltirib chiqarmoqda: iqtisodiy mustaqillik, siyosiy ta'sir va investitsiyalarni nazorat qilish masalalari Yevropa mamlakatlarining diqqat markazida turibdi. Shu nuqtai nazardan, mazkur maqolada "Bir kamar – bir yo'l" tashabbusi doirasida Xitoy investitsiyalarining Yevropa iqtisodiyotidagi roli chuqur tahlil qilinadi. Maqolaning asosiy maqsadi - Xitoy investitsiyalarining Yevropadagi iqtisodiy o'sish, ish o'rinlari yaratish, savdo balansi va texnologik rivojga ko'rsatgan ta'sirini aniqlash hamda bu jarayonning ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilishdir. Ushbu mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, bugungi kunda xalqaro iqtisodiy siyosatda Xitoy investitsiyalari global barqarorlikka ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillardan biriga aylangan. Yevropaning bu jarayondagi o'rni esa, kelajakdagi iqtisodiy yo'nalishlar va geosiyosiy muvozanatni belgilovchi muhim bo'g'in sifatida qaralmoqda.



1-rasm, Bir kamar bir yo'l loyihasining afzalliklari va kamchiliklari²

Mintaqaviy integratsiya va global bozorlarga yaqinlashish

- Bir kamar bir yo'l O'zbekistonni Markaziy Osiyoda transport tranziti uchun muhim tugunlardan biriga aylantirishi mumkin. Bu, mintaqadagi hamkorlikni

² Muallif tomonidan tuzilgan

mustahkamlash, qo'shni davlatlar bilan savdo va transport aloqalarini kengaytirish uchun imkon.

- Shuningdek, tashabbus transport, energetika, logistika, raqamli infratuzilmani birlashtirishni ko'zlaydi, bu esa uzoq muddatda O'zbekiston uchun infratuzilmani modernizatsiya qilish, yangi klasterlar va transport-logistika tizimlarini rivojlantirish imkonini beradi.

Iqtisodiy o'sish va eksport potentsialini oshirish bo'yicha quyidagi afzalliklari bor: Savdo hajmi ortsa, davlat va xususiy sektor imkoniyatlari kengayadi: yuk tashish, tranzit, logistika xizmatlari orqali daromad - bu eksport-import va tranzit xizmatlari orqali mamlakat iqtisodiy salohiyatini oshiradi. Bir kamar bir yo'l orqali infratuzilma modernizatsiyasi va transport tarmoqlarini rivojlantirish O'zbekiston ichidagi transport xizmatlari sifatini ham oshirishi -shaharlararo va xalqaro yo'l harakati samaradorligi yaxshilanishi mumkin.

Turizm va madaniy aloqalar uchun yangi imkoniyatlar

- Bir kamar bir yo'l o'z o'rnida sayohat, turizm va mintaqaviy aloqalarni kuchaytirish yo'llarini kengaytiradi. Ayniqsa, O'zbekiston boy tarixiy merosga ega (shaharlar, madaniy obidalar, sayyohlik joylari), va yangi transport yo'llari bu salohiyatni ochib berishi mumkin.

- Turizm, transport va eksport orqali ko'plab sektorlarda - xizmat ko'rsatish, mehmonxona, savdo va boshqaruv sohalarida ham rivojlanish kuzatilishi ehtimoli bor.

Endi muammolar, xavf va cheklovlarni ko'rib chiqadigan bo'lsak, quyida bir qanchasi ko'rsatilgan: Geografik va texnik cheklovlar, infratuzilma investitsiya ehtiyoji, O'zbekiston «double landlocked» davlat hisoblanadi - ya'ni dengizga chiqishga imkon yo'q; shuning uchun tranzit yo'llari va atrofdagi davlatlar bilan infratuzilma mosligi muhim. Integratsiya va tranzit yo'llarini yaratish yoki kengaytirish katta investitsiya, murakkab loyiha va samarali koordinatsiyani talab qiladi. Harakat yo'llari, temir yo'l yo'nalishlari, bo'jxona, logistika tizimlarini uyg'unlashtirish - vaqt, mablag', siyosiy iroda talab qiladi. Bir kamar bir yo'l loyihasida inson xavfsizligi va transport-logistika muammolari ham mavjud:

- Agar transport yo'llari, avtomobil yoki temir yo'l infrastrukturasi kengaytirish bilan birga, yo'l harakati xavfsizligi, yo'l belgilarining sifati, piyodalar, transport tartibi va xavfsizlik choralarini yetarli darajada ta'minlamasak - yo'l-transport hodisalari, avtohalokatlar xavfi ortadi. Bu O'zbekiston kontekstida muhim sabab.

- Yo'l harakati qoidalarini yangilash, nazorat va texnik jihatlarni mustahkamlash talab qiladi: harakat xavfsizligi, signalizatsiya, svetoforlar, piyodalar o'tish joylari, tez yordam tizimlari va boshqaruv.

Ijtimoiy, ekologik va hududiy muammolar

- Yirik infratuzilma loyihalari, yo'l kengaytirish va tranzit oqimlari hududlarda yashovchi odamlar, qishloq joylari, tabiat va ekologiyaga ta'sir qilishi mumkin. Agar reja va nazorat yetishmasa - shahar va qishloq infratuzilmasi, ekologiya, suv-yer resurslariga zarar yetishi xavfi bor.

- Transport va tranzit orqali ko'chish, migratsiya, hududiy tinchlik, mahalliy jamiyatlar strukturasida o'zgaruvchilar - ijtimoiy muammolar, qishloq aholisining turmush tarziga ta'sir qilishi ehtimoli mavjud.

Qaramlik va geopolitik risklar

- Bir kamar bir yo'l loyihasi asosan katta sarmoyador va tashabbus egasi davlat tomonidan boshqariladi. Bu ba'zi holatlarda iqtisodiy yoki siyosiy "qaramlik"ni oshirishi, mahalliy manfaatlarining cheklanib qolishi xavfini tug'diradi. Global savdo yo'llariga bog'liqlik va tashqi bozorlar bilan aloqalarga qaramlik - bu ham salbiy tomon bo'lishi mumkin.

- Agar loyiha boshqaruvi, bojxona siyosati, tranzit shartlari, hududiy hamkorlik murakkab bo'lsa - tranzit potentsialidan to'liq foydalanish qiyin bo'lishi mumkin.³

O'zbekiston uchun bir kamar bir yo'l loyihasi savdo-sotiq munosabatlarini rivojlantirish uchun yaxshi imkoniyat hisoblanadi, bu bo'yicha PQ-4308-sonli prezident qarorida ham alohida takidlab o'tilgan. Bu qaror asosan O'zbekiston respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2019-yil 24 - 27-aprel kunlari Xitoy Xalq Respublikasiga amaliy tashrifi, masalan quyidagi jihatlari e'tiborga sazovor: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Xitoy Xalq Respublikasiga amaliy tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarning o'z vaqtida va to'liq amalga oshirilishini ta'minlash maqsadida:

1. Quyidagilar:

"Bir makon, bir yo'l" ikkinchi xalqaro forumi doirasida O'zbekiston Respublikasi tomonidan ilgari surilgan tashabbuslar va takliflarni o'z vaqtida va to'la hajmda amalga oshirishni ta'minlash bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi ("Yo'l xaritasi") 1-ilovaga muvofiq;

"Bir makon, bir yo'l" ikkinchi xalqaro forumi doirasidagi ikki tomonlama uchrashuvlar davomida erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi ("Yo'l xaritasi") 2-ilovaga muvofiq;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Bir makon, bir yo'l" ikkinchi xalqaro forumi ishida ishtirok etish uchun Xitoy Xalq Respublikasiga amaliy tashrifi davomida erishilgan kelishuvlarning o'z vaqtida va so'zsiz ijro etilishi ustidan monitoring va nazoratni ta'minlash mexanizmi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

³ <https://erus.uz/index.php/er/article/view/255/321>

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ikki hafta muddatda ushbu qarorning 2-ilovasiga kiritilgan investitsiya loyihalarini amalga oshirish bo'yicha tarmoq jadvallarini tasdiqlasin.

2. O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi markaziy apparati tuzilmasiga xorijiy mamlakatlar bilan tashqi iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish uchun mas'ul bo'lgan investitsiyalar va tashqi savdo vazirining birinchi o'rinbosari lavozimi kiritilsin.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi markaziy apparati tuzilmasida boshqaruv xodimlari shtatlari sonini 20 nafarga ko'paytirish hisobiga Tashqi iqtisodiy hamkorlik bosh boshqarmasi (keyingi o'rinlarda — Bosh boshqarma) tuzilsin.

Quyidagilar investitsiyalar va tashqi savdo vazirining birinchi o'rinbosari va Bosh boshqarmaning asosiy vazifalari etib belgilansin:

xorijiy mamlakatlar, shu jumladan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusining ishtirokchi davlatlari bilan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik loyihalari va dasturlarini ishlab chiqish hamda amalda ro'yobga chiqarish;

xorijiy mamlakatlar bilan yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar, sanoat, energetika, infratuzilmani rivojlantirish, transport, logistika, qishloq xo'jaligi, turizm va boshqa yo'nalishlarda amaliy hamkorlikni kengaytirish bo'yicha aniq takliflar tayyorlash;

oliy darajadagi tashriflar yakunlari bo'yicha erishilgan savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik sohasidagi kelishuvlarning so'zsiz va sifatli ijro etilishi ustidan doimiy hamda tizimli monitoring va nazoratni tashkil qilish;

3. O'zbekiston Respublikasi bilan Xitoy Xalq Respublikasi o'rtasida savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy va moliyaviy hamkorlik loyihalarini sifatli tayyorlash va amalga oshirish bo'yicha tizimli ishlarni ta'minlash maqsadida Pekin shahrida xodimlarning cheklangan soni 11 kishidan iborat O'zbekiston Respublikasining Xitoy Xalq Respublikasidagi Elchixonasi huzuridagi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi vakolatxonasi tashkil etilsin.

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi hamda Moliya vazirligi bir oy muddatda:

Vakolatxona tuzilmasi, xarajatlar smetasi, budjet va budjetdan tashqari mablag'lar hisobidan moliyalashtirish manbalari, xodimlar mehnatiga haq to'lash darajasi (faoliyatning aniq natijalari uchun mukofotlashni hisobga olgan holda) hamda moddiy-texnik ta'minlashni ko'rsatib bergan holda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga hukumat qarori loyihasini kiritсин;

Vakolatxonani malakali mutaxassislar bilan butlash hamda uning faoliyat boshlashi bilan bog'liq barcha tashkiliy masalalarni hal etsin”⁴



5

2-rasm, Bir makon-bir yo'l loyihasida ishtirok etayotgan mamlakatlar xaritasi (Xarita asli holatida ingliz tilida berildi)

Quyidagi xarita Xitoyning “Bir kamar-bir yo'l” tashabbusining geografik ko'lamini va strategik yo'nalishlarini aniq tasvirlab berilgan. Rasmga diqqat bilan qaralganda, Bir kamar bir yo'l loyihasi nafaqat iqtisodiy loyiha, balki mintaqalararo integratsiyani kuchaytirishga qaratilgan ulkan geoiqtisodiy tashabbus ekani yaqqol seziladi. Xaritada ikki asosiy yo'nalish ko'rsatilgan:

1. **“Silk Road Economic Belt” – Quruqlikdagi Ipak yo'li** (sariq nuqtalar bilan)
2. **“Maritime Silk Road” – Dengiz Ipak yo'li** (ko'k nuqtalar bilan)

Xaritada ko'rsatib o'tilgan quruqlikdagi Ipak yo'li yo'nalishi bo'yicha tahlil qilib ko'radigan bo'lsak: Sariq rangda belgilangan marshrut Xitoyning Ichki hududlaridan – ayniqsa Xi'an, Urumqi kabi shaharlardan – g'arbga qarab cho'zilgan. Bu yo'nalish Markaziy Osiyo, Rossiya, Turkiya, va Yevropa tomon harakatlanadi. Uning yakuniy nuqtalaridan biri sifatida Belgiya ya'ni Antverpen porti va boshqa Yevropa markazlari ko'rsatilgan.

Bu yo'l Xitoy uchun nima beradi?

- Xitoy tovarlari uchun yangi tranzit yo'llari,
- Yevropa bozorlariga tezroq kirish,
- Quruqlik orqali savdo xarajatlarini kamaytirish,

⁴ <https://lex.uz/mact/-4381463>

⁵ <https://daryo.uz/2023/10/15/bir-kamar-bir-yol-ozbekiston-uchun-qanday-foyda-keltiradi>, Kirilgan sana: 10.05.2022

– Mintaqaviy iqtisodiy sheriklikni kuchaytirish. Bu esa Yevropa uchun ham muhim, chunki ular Xitoy bilan hamkorlik orqali yangi investitsiyalar va infratuzilma loyihalariga ega bo'ladi. Xaritada ko'rsatib o'tilganidek dengiz orqali o'tadigan Ipak yo'lini ko'rib chiqamiz: Ko'k chiziqlar Janubiy Xitoydan boshlangan holda Hanoi, Kuala Lumpur, Jakarta, so'ng Hind okeani bo'ylab Sri Lanka (Colombo), Keniya, Djibouti portlariga o'tib, nihoyat Yevropa tomon harakatlanadi. Bu yo'nalish Xitoyning global savdosining "arteriyasi" bo'lib xizmat qiladi, chunki Xitoy eksportining katta qismi aynan dengiz orqali amalga oshiriladi.

Dengiz yo'li orqali Xitoy quyidagi maqsadlarga erishadi:

- muhim portlarni modernizatsiya qilish orqali savdo oqimini boshqarish,
- Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari bilan logistika zanjirini kuchaytirish,
- Hind okeani havzasida strategik ishtirokini kengaytirish. Xaritada ko'rinayotgan asosiy geoiqtisodiy mantiq: Xitoy dunyoning turli nuqtalariga, ayniqsa Yevropa va Afrika bozorlariga chiqishni bir yo'nalishga qaram bo'lmagan holda ta'minlamoqchi. Ya'ni, Bir kamar bir yo'l – bu diversifikatsiya. U butun dunyo bo'ylab Xitoy tashabbusining qanday qilib logistika tizimi, geosiyosiy strategiya, va iqtisodiy diplomatiya orqali amalga oshirilayotganini ko'rsatadi.

Xulosa

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, "Bir kamar - bir yo'l" tashabbusi nafaqat iqtisodiy hamkorlik loyihasi, balki davlatlar o'rtasida o'zaro ishonch, muloqot va taraqqiyotni yangi bosqichga ko'tarishga qaratilgan keng qamrovli strategiyadir. O'zbekiston uchun ushbu tashabbusning eng katta ahamiyati - mamlakatimizning tarixiy Ipak yo'li markazi sifatida tutgan o'rnini zamonaviy shaklda tiklashidir. Transport-logistika infratuzilmasining yaxshilanishi, yangi temir yo'llar va avtomobil yo'llarining qurilishi, bojxona tizimining modernizatsiya qilinishi O'zbekistonning mintaqaviy va global savdo maydonlaridagi raqobatbardoshligini sezilarli darajada oshirmoqda. Shuningdek, tashabbusning jahon miqyosidagi ta'siri ham ulkan. Bir tomondan, davlatlar o'rtasidagi iqtisodiy integratsiyani kuchaytirs, boshqa tomondan, madaniy almashinuv va insonlar o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlaydi. Bu yo'nalish bo'yicha amalga oshirilayotgan har bir loyiha - Temir yo'l koridorlaridan tortib portlar, energetika tizimlari va raqamli infratuzilmagacha - global savdo oqimini qayta shakllantirmoqda. Natijada dunyo iqtisodiyoti o'zaro bog'liq, barqaror va samaraliroq tizimga aylanib bormoqda. Insoniy nuqtai nazardan qaraganda esa, "Bir kamar - bir yo'l" tashabbusining eng muhim jihati - odamlar hayotiga bevosita kirib kelayotgan o'zgarishlardir. Yangi ish o'rinlari yaratilmoqda, savdo va xizmat ko'rsatish sohasi kengaymoqda, ta'lim va texnologiya almashinuvi kuchaymoqda. Bu esa oddiy insonlar hayotida real imkoniyatlar paydo bo'layotganidan dalolat beradi. Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston ushbu global tashabbusda faol qatnashar ekan, strategik hamkorlikni chuqurlashtirib, o'zining geoiqtisodiy salohiyatini kuchaytirib boradi.

Kelajakda bu yo‘l mamlakatimizni nafaqat Markaziy Osiyoda, balki kengroq mintaqalarda ham muhim logistika tuguniga aylantirishi shubhasiz. Umuman olganda, “Bir kamar - bir yo‘l” tashabbusi - bu faqat yo‘llar va koridorlar emas, balki xalqlarni, tarixlarni va kelajak sari intilayotgan orzularni bog‘laydigan ulkan ko‘prikdir. O‘zbekistonning bu jarayondagi ishtiroki esa bizning rivojlanish yo‘limizni yanada yorqin, barqaror va global jihatdan bog‘langan qilishi bilan ahamiyatlidir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. PF-151-son 28.08.2023 Farmoni <https://lex.uz/uz/docs/-6587221>
2. PF-200-son 28.11.2023 <https://lex.uz/uz/docs/-6676585>
3. Tursunboyeva, Khursidabonu Tolibjon qizi — The "One belt, One road" Project as a strategy of china and its impact on the investment climate in Uzbekistan <https://internationaljournals.co.in/index.php/giirj/article/view/6174>
4. Shukhratbek Abduvakhobov - Analysis of trade turnover, The belt and Road initiative, and technology transfer between China and Uzbekistan (2025)
5. “Why nations fail” written by Daron Achemoglu and James.A.Robinson
6. “How a decade of financial crises changed the world” written by Adam Tooze
7. <https://www.amerikaovozi.com/a/6253926.html>
8. https://uza.uz/oz/posts/bir-yol-bir-makon-yangi-tashabbuslar-yangi-imkoniyatlar-va-yangi-muloqot-maydoni_529160
9. European Investment Bank. (2024). Investment Report 2024. https://www.eib.org/attachments/lucalli/20240354_investment_report_2024_en.pdf
10. https://uza.uz/oz/posts/bir-yol-bir-makon-yangi-tashabbuslar-yangi-imkoniyatlar-va-yangi-muloqot-maydoni_529160